

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ismoilova Shahrizoda

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon bolalarning kelajakdagi bilim darajasi, nutq madaniyati va umuman shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ona tili darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini mustahkamlash nafaqat fanning asosiy mazmunini egallash, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashini kengaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisda Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish ko'nikmalari, yozish ko'nikmalari, savodxonlik, ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalar, dars jarayoni, mustaqil o'qish, adabiy o'qish, o'quvchilar faolligi.

O'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, o'rgatish va o'zlashtirish darajasi, shuningdek, dars mazmunining bolalar yoshiga va fikrlash darajasiga mosligi asosiy omil sanaladi. O'qituvchi har bir bolaning salohiyatini to'g'ri baholay olishi va unga mos usul va metodlarni tanlay bilishi zarur. Chunki aynan boshlang'ich sinfda ota-ona va pedagogning bevosita yordami ta'limda birinchilik rolini o'ynaydi. Bu bosqichda o'qituvchining ta'lim jarayoni ishtirokchisi sifatidagi faolligi, mehr-muhabbati, sabri va matonati muhim. Shuningdek, bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda mustaqil ishlash, savol berish, o'z fikrini erkin bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish lozim. O'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida birinchi navbatda o'quvchilar harflarni tanish, tez va to'g'ri o'qish, so'z va gaplarni to'g'ri talaffuz qilish, intonatsiyaga rioya qilish singari o'zlashtirish bosqichlarida bosqichma-bosqich yondashuv talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qishga bo'lgan muhabbati, kitob mutolaasi jarayonida o'zini qulay his qilishi, bilim olish jarayonidan mamnun bo'lishi uchun darslarning mazmuni ularning yoshiga va qiziqishiga mos ravishda olib borilishi zarur. Ayniqsa, darslarda turli interaktiv usullardan, didaktik o'yinlardan, mavzuga oid mashq va topshiriqlardan, tinglab tushunish, hikoya qilish, og'zaki va yozma nutq namunalari ustida ishlash kabi ishlardan keng foydalanish samarali natija beradi.[1]

Yozish ko'nikmalarini shakllantirishda esa, birinchi galda, o'quvchida har bir harf shakli, yozilishi, so'z va gap tarkibida qanday ishtirok etishini anglashga, harflarni silliq va chiroyli yozishga, diktant va izohli diktant ishlashga, mustaqil gap tuzishga, to'g'ri imlo va punktuatsiyaga amal qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada o'qituvchi har bir bolada yozishga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otishi, ularning xatolarini to'g'ri tahlil qilib, sabr bilan tuzatib borishi, har bir o'quvchining muvaffaqiyatiga quvonishi muhim. Shu bilan birga, mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil qilish, o'quvchilarning individual qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, ularga qilish mumkin bo'lgan topshiriqlarni berish zarur. Ta'lim jarayonida o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metod va vositalardan keng foydalanish talab etiladi. Jumladan, multimedia vositalari, interaktiv doska, audio va video materiallar, elektron darsliklar kabi zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladigan darslar o'quvchilarda nafaqat o'qish va yozish ko'nikmalarini, balki informatsion madaniyat, mustaqil izlanish, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali yosh avlodda axborotlar bilan ishlash, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarining paydo bo'lishi uchun zamin yaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini konkretlashtirish va mustahkamlash yuzasidan maqsad yo'nalishtirishli metodlardan foydalanish, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Darslarni, imkon qadar, hayotiy voqealar yoki o'quvchilarni qiziqtiradigan mavzular asosida tashkil etish, gap tuzish, matn ishlab chiqish, izohli so'zlar ustida ishlash kabi mashg'ulotlar natijasida bolalarda mantiqiy fikrlash, o'z fikrini aniq va lo'nda ifodalash, to'g'ri yozish malakalari shakllanadi. Bu borada o'qituvchi tomonidan ko'plab innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, har bir darsni o'ziga xos va o'quvchilar uchun qiziqarli tarzda o'tkazishni ta'minlash ham dolzarb hisoblanadi.[2]

O'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda guruhli ishlash, juftlikda ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob usulidan samarali foydalanish, matn ustida mustaqil ishlash, keyinchalik o'z mulohazalarini bayon qilish, darsdan tashqari mustaqil o'qish va yozish mashqlari talab va takliflarni hisobga olib tuzilganda yanada samarali bo'ladi. Shuningdek, oilada ham bolalarga kitob mutolaa qilish, hikoya yoki ertak o'qib eshittirish, harxlabr o'yin shaklida matn tuzish, varaqaga so'z yoki gap yozishni amaliy tarzda davom ettirish orqali bolaning o'qish va yozish ko'nikmalarini mustahkamlash mumkin. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar bilan individual ishlash, ularning har birida yozishga, o'qishga qiziqishni oshirish, harflarni to'g'ri tanlab, yozishda e'tiborli bo'lish, hamda, yuzaga keladigan har xil xatolarni sabr bilan tahlil qilish va to'g'ri yo'naltirishdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisida o'qish va yozishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'lishining asosiy omili darslarda innovatsion va an'anaviy metodlarni uyg'unlashtirib yondashishda namoyon bo'ladi. Ko'plab

rusumdagi savollar, mustaqil mashqlar, topishmoqlar, soʻzlar ustida ishlash, ertak tuzish yoki koʻrgazmali vositalar yordamida bundan-da samarali natijalarga erishish mumkin.[3]

Oʻqish va yozish koʻnikmalarini oʻrgatishda darsdan tashqari olib boriladigan mashgʻulotlarning oʻrni ham benihoya muhim hisoblanadi. Mashgʻulotlarning qisqa va mazmunli boʻlishi, turli mavzular bilan bogʻlab borilishi, har bir bolaning ishtiroki taʼminlanishi taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu usullar oʻquvchilarning mustaqil oʻqish va yozish malakalarini, hamda fikrlash doirasini kengaytiradi. Oʻqituvchi tili ravon, tushunarli, muloqotda oddiy va aniq boʻlishi orqali oʻquvchilarning darsga boʻlgan ishtiyoqini oshirishi, ulardagi nutqiy madaniyat, adabiy tilga xos xususiyatlarni egallashiga erishish mumkin. Bundan tashqari, tarbiyaviy darslar, ijtimoiy hayotdagi muammolar, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid mavzular asosida mashgʻulotlar olib borish orqali oʻqituvchi oʻquvchilar dunyoqarashini kengaytiradi, ularni oʻqish va yozishga oʻrgatadi. Oʻqish va yozish koʻnikmalarini shakllantirishda taʼlim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy oʻquv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar, qoʻllanmalar, metodik tavsiyalar, eslatmalar va tavsiya etilgan elektron resurslardan keng foydalanish, oʻquvchilarda mustaqil oʻrganish malakalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bolalarning oʻz bilimini oshirishga, bilimlarni mustahkamlashga intilishi, mustaqil izlanishlar olib borishga ragʻbatlantirish ham yaxshi natija beradi.[4]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻqish va yozish koʻnikmalarini shakllantirish – bu doimiy jarayon boʻlib, unda uzluksiz izlanish, sabr, mehr, zamonaviy metod va vositalarni oʻz vaqtida va teng taqsimlash, har bir oʻquvchiga individual yondashuv asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Oʻquvchilar oʻzlashtirayotgan bilimlar asosida ular boʻlajak yirik ijtimoiy taraqqiyot ishtirokchisi, bilimli, zakovatli, malakali inson sifatida shakllanadi. Malakali oʻqituvchi esa har bir oʻquvchining toʻgʻri oʻqish va chiroyli yozish koʻnikmalariga ega boʻlishi uchun oʻz bilim va mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi, har bir bolaga individual eʼtibor koʻrsatishi lozim. Zero, oʻqish va yozish koʻnikmalari boshlangʻich taʼlim bosqichida mukammal shakllanmaganda, yuqori bosqichlarda boshqa fanlarni oʻzlashtirish ham qiyinlashadi. Shundan kelib chiqib, har bir oʻqituvchi va ota-ona bolalarda bu koʻnikmalarni shakllantirishga tinimsiz eʼtibor qaratishi, bola kelajagiga sarmoya ekanligini unutmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adxamova, S. (2018). "Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining mustaqil oʻqish koʻnikmalarini shakllantirish metodikasi". Oʻzbekiston Respublikasi ziyolilar jurnali, 2(42), 20-25.
2. Berdikulova, Z. A. (2021). "Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini toʻgʻri oʻqish va yozishga oʻrgatish metodikasi". Boshlangʻich taʼlim muammolari, 4(7), 41-46.

3. Doniyorov, M. A. (2020). "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish". Metodik izlanishlar, 3(19), 57-62.
4. Husanboyeva, S. (2019). "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Jo'raqulova, F. (2017). "Boshlang'ich ta'limda o'qish va yozishga o'rgatish orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish". Zamonaviy ta'lim, 1(10), 115-120.
6. Karimova, N. (2021). "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida esse yozishga o'rgatish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish". Yangilanish jarayoni, 2(5), 77-83.
7. Salimova, M. R. (2022). "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy o'qish san'atini shakllantirish". Ilm nuri, 4(9), 23-27.